

O'ZBEK ANTROPONIMIKASINING KELIB CHIQISH TARIXI

Saidov Baxramjon Abduraimovich

Andijon davlat chet tillari instituti

Anotatsiya: *Ushbu maqola o'zbek antroponimlarining tarixiy taraqqiyotini o'rganishga bag'ishlangan. Antroponimlar (kishi ismi, laqabi va taxallusi) anomastikaning bir bo'limi bo'lib, tarixiy nuqtayi nazardan tadqiq qilinganda o'zbek antroponimikon o'ziga xos o'zgaruvchan xususiyatga ega leksik semantik tizim ekanligini ko'ramiz. Ushbu o'zgarishlarga asoslanadigan bo'lsak, o'zbek tilshunosligida antroponimlarning umumiy lisoniy, kulturologik, tarixiy va konseptual jihatlariga ko'ra, shartli davrlashtirish orqali shu kungacha o'zgarib kelgan xususiyatlarini aks ettirilishi mumkunligi takidlangan.*

Kalit so'zlar: *Antroponim, antroponimikon, anomastika, struktural, semantik, konseptual va kulturalogik, ism, laqab, sifatiy nom.*

ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ УЗБЕКСКОЙ АНТРОПОНИМИКИ

Саидов Бахрамжон Абдураимович

Андижанский государственный институт иностранных языков

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению исторического развития узбекских антропонимов. Антропонимы (имя человека, прозвище и псевдоним) являются разделом ономастики, и при их исследовании с исторической точки зрения можно увидеть, что узбекский антропонимикон представляет собой лексико-семантическую систему с характерной изменчивостью. Основываясь на этих изменениях, подчёркивается возможность отражения свойств, изменявшихся до настоящего времени, через условную периодизацию антропонимов в узбекском языкознании с учётом их общелингвистических, культурологических, исторических и концептуальных аспектов.*

Ключевые слова: Антропоним, антропонимикон, ономастика, структура, семантика, концептуальный и культурологический, имя, прозвище, качественное наименование.

THE ORIGIN AND HISTORICAL DEVELOPMENT OF UZBEK ANTHROPONYMY

Saidov Bakhramjon Abdurayimovich
Andijan State Institute of Foreign Languages

Annotation: *This article is devoted to the study of the historical development of Uzbek anthroponyms. Anthroponyms (a person's name, nickname, and pseudonym) are a branch of onomastics, and when studied from a historical perspective, it becomes clear that the Uzbek anthroponymicon is a lexicosemantic system with its own distinctive variability. Based on these changes, it is emphasized that, in Uzbek linguistics, it is possible to reflect the evolving features of anthroponyms through a conditional periodization according to their general linguistic, cultural, historical, and conceptual aspects.*

Keywords: *Anthroponym, anthroponymicon, onomastics, structural, semantic, conceptual and cultural, name, nickname, qualitative designation.*

KIRISH Til o'z diaxronik tabiatidan kelib chiqib tinimsiz rivojlanib turuvchi tizim bo'lib, uning tarixiy taraqqiyotida til birliklari, grammatik va sintakmatik qurilishi va boshqa sohalaridagi o'zgarishlarni o'rganishda kishilarning ismlari muhim bir manba vazifasini bajarishi mumkin. Shu sababli bo'lsa kerak ismlar va nomlarni o'rganuvchi til bo'limi bo'lgan onomastika, xususan antroponomikani tarixiy nuqtayi nazardan tadqiq qilishga qiziqish nisbatan kuchli bo'lgan. Bunday tadqiqotlar mazmunida kishilar nomlari struktural qurilishi jihatidan morfologik va sintaktik xususiyatlari, intonatsion va yozuv xususiyatlarini aniqlash borasida fonetik va transkripsion, nomlarning tillararo munosabatlarini o'rganishga qaratilgan leksikologiya, semantika va tarjima sohalaridagi izlanishlar amalga oshirilgan.

Tillardagi antroponimikon o'z mohiyatiga ko'ra, boshqa bo'limlar kabi uzluksiz taraqqiy qiluvchi o'ziga xos leksik-semantik tizim bo'lib, uning bugungi kundagi holatini tarixiy o'zgarishlarini anglamasdan turib izohlab bo'lmaydi. Chunonchi til ichki tizimidagi o'zgarishlar, xalqlarning o'zaro madaniy va tarixiy aloqalari bevosita bu tizimdagi o'zgarishlarga olib boradi. Ma'lum bir jamoa tarkibida insonlarni biron bir sotsiolingvistik belgi bilan atash natijasida ismlar shakllangan bo'lib, ular shu jamiyatning ma'lum bir tarixiy davrdagi haolati va kechinmalarini aks ettiradi.

Antroponimik manbalar, o'z navbatida aksariyat hollarda tilda yuvning paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, busiz ularni tadqiq qilishning imkoni mavjud bo'lmaydi. Vaholanki, ismlarning tarixiy shakllanishi kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrlarga borib taqalsa-da, bu davrlardagi ismlar haqida olimlarda biron ishonchli manba bo'lmaydi. Shunga ko'ra, qiyoslanayotan tillardagi antroponimlarning ilk namunalari bevosita yozuvning paydo bo'lgan davrlari bilan bog'lanadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR O'zbek antroponimikasining shakllanishi va taraqqiyoti yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan sezilarli darajada faollashdi. Jumladan, E Begmatovning "O'zbek tili antroponimikasi" nomli dissertatsiyasida o'zbek shaxs nomlarining tarkibiy tuzilishi, ularning semantik qatlamlari va ijtimoiy-tarixiy omillarga bog'liqligi chuqur tahlil etilgan. Muallif shaxs nomlarini lug'aviy, grammatik va tarixiy omillar asosida o'rganib, ularni zamonaviy leksikologik yondashuvlar asosida tasniflaydi. B. Yo'ldoshevning "O'zbek tili onomastikasi masalalari" nomli qo'llanmasida esa o'zbek antroponimikasining asosiy muammolariga qaratilgan antroponimik birliklarning umumiy onomastik tizimdagi o'zni, ularning dialektal, tarixiy va madaniy ko'rinishlari haqida so'z yuritiladi. Ayniqsa, ismlar mazmunidagi milliy-etnik xususiyatlar va tilning ichki tizimiga oid jihatlar, o'zbekcha antroponimlarda yaqqol sezilib turishi haqida muhim ilmiy xulosalar berilgan. G'.H. Sattorov o'zining "O'zbek ismlarining

turkiy qatlamiga oid masalalar” mavzusidagi ilmiy izlanishida turkiy ismlarning ildizini, ularning qadimiy qatlamini aniqlashga e’tibor qaratgan. U qadimiy turkiy yozma manbalar va og’zaki nutqdagi namunalar asosida ismlarning dastlabki shakllari va ma’no o’zgarishlarini izohlaydi. Bundan tashqari, tarixiy manbalardan, xususan, “Boburnoma” va “Humoyunnoma” asarlarida uchraydigan shaxs nomlari tahlili orqali o’sha davr antroponimik tizimining ijtimoiy-ma’naviy ko’rinishlarini aniqlash mumkin. Ushbu asarlarda berilgan ismlar orqali o’rta asr o’zbek jamiyatida ismlarning qanday ideologik, diniy va etnik ma’nolarga ega bo’lganini anglash mumkin. Ushbu adabiyotlar asosida maqolada o’zbek antroponimlarining tarixiy ildizlari, madaniy qatlamlari hamda zamonaviy taraqqiyoti ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil etiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA O’zbek antroponimikasini etimologik evalyutsiyasini tadqiq etish boshqa bir qancha tillarga nisbatan murakkab bo’lib, turkiy xalqlardagi ilk davlatlardan biri bo’lgan Turk hoqonligi [5, 53], Salavkiylar yoki boshqa davlatlardan yozma yodgorliklar qolmaganligi, mavjud O’rxo’n-Yenisey, qadimgi turklarning runik yozuvlari yetarlicha o’qilmaganligi sababli [8, 52] kishilar ismlari haqidagi ma’lumotlar Islomlashuv davridan keyingi davrlardan boshlangan. Undan qadimgi antroponimlar mifologik xususiyat kasb etib, aksariyat hollarda badiiy matnlardagi to’qima obrazlar sifatida talqin etiladi [1, 26]. Ushbu fikrlarga asoslanadigan bo’lsak, o’zbek tilshunosligida antroponimlarning umumiy lisoniy, kulturologik, tarixiy va konseptual jihatlariga ko’ra, shartli davrlashtirish quyidagicha ko’rinishni aks ettiradi. Qadimgi turkiylar davri 3-7-asrlar, islom davri 8-19-asrlar, Temuriylar davri 15-17-asrlar va zamonaviy davr.

O’zbek tilidagi antroponimlarning shakllanishi ham qadim zamonlarga borib taqaladi. Boshqa tillarda bo’lgani kabi jamiyatdagi “kishilarni ajratib ko’rsatish yoki atash uchun yaratilgan lisoniy belgilar”, boshqacha qilib aytganda atoqli otlar “ma’lum differensial belgilariga aks ettirish orqali nominatsiya” vazifasini bajarganlar [1, 21]. Ilk davrlarda, jumladan turk xoqonligi davrida ismlar ikki yoki aksariyat hollarda uch komponentli nomlar bo’lib, semantik, konseptual va

kulturologik jihatlariga ko'ra ham deyarli o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan. Biroq, o'zbek antroponimikasida ism komponentlari aksariyat ajratilgan holda qo'llanilib, birinchi komponent kishining ma'lum jihatini belgilab ko'rsatuvchi izohlov, ikkinchi qismi esa bevosita ismni aks ettiruvchi komponent hisoblangan. Ismdagi komponentlarning miqdori bevosita nom egasi bo'lgan shaxsning ijtimoiy mavqei yoki ba'zi hollarda kasbiy, kelib chiqish yoki etnik mansublik kabi semalarni ifoda qilgan. Jumladan, Alp Er Tunga (DLT, I, 41-bet), Alp Tegin (DLT, I, 413-bet), Bekech Arslon Tegin (DLT, I, 357-bet), Altinashiq, Kuntug'mish, Go'ro'g'li, Alpomish kabi ismlardagi "alp" komponenti sifat turkumiga oid so'z bo'lib, "polvon, qudratli" semasini ifoda qilgani holda, ism egasining jismoniy yoki ruhiy holatini ifoda qiladi. Qadimgi turkiy xalqlarning yagona yozma yodgorligi Mahmud Koshg'ariyning "Devoni-lug'atut-turk" (DLT) asari ismlar haqidagi eng qimmatli manba hisoblanib, ushbu tadqiqotimizdagi aksariyat ma'lumotlar shu manbaga havola qilinadi. Ammo qadimgi turkiy ismlardagi komponentlarning nomlanishi aksariyat tadqiqotlarida "sifatlovchi" yoki "ulug'lovchi, kasb-kor yoki ijtimoiy mavqeni" ifodalovchi birlik emas, balki "laqab" atamasi bilan nomlanganligi bilan boshqa xalqlar antroponimikasidan farqlovchi jihat" sifatida e'tirof etilgan [11, 15]. Shunga ko'ra, qadimgi turkiy xalqlarning antroponimikasidagi nomlar ko'p hollarda kishilarga dunyoga kelishi bilan beriladigan ismlar va keyinchalik ularning ishi, turmushi, kasbi, ijtimoiy statusi, etnik kelib chiqishini ifoda etuvchi "sifatlovchi" komponentdan tashkil topgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

O'zbek antroponimikasining qadimgi umumturkiy davri boshqa davrlardan nisbatan murakkab bo'lib, bu davrda "sof turkiy va o'zbekcha ismlarning bir paytda qo'llanilgan"ligi bilan izohlanadi [6, 40]. Ismlar mazmunidagi milliy-etnik xususiyatlar va tilning ichki tizimiga oid jihatlar, ayniqsa o'zbekcha antroponimlarda yaqqol seziladi. Ushbu faktlarga asoslangan holda, B.Yo'ldoshev o'zbek tilidagi antroponimlarni tadqiq qilgan holda ularni uch xil nomlar: 1) ma'nosi aniq sezilib turuvchi, 2) ma'nosi hozirda qorog'ilashgan, 3) o'lik ma'noli

nomlarga [6, 40] ajratgan holda “aksariyat o‘zbekcha ismlarni birinchi va ikkinchi tipga” mansubligi e’tirof etgan [6, 40].

Bundan farqli ravishda turkiy antroponimlarni semantik nuqtayi nazardan tadqiq qilgan G‘.H.Sattorov bu ismlarni “leksik-semantik xususiyatlariga ko‘ra yana uch guruhga: 1) ism-bag‘ishlovlar, 2) nom-izohlar, 3) ism-tilaklar” kabilarga ajratgan edi [6, 19].

Turli madaniyatlarning aralashuvi ta’sirida antroponimlarning o‘zgarishi, hatto o‘zbek tilida ham seziladi. 9-10-asrlardan o‘zbek tilida ham turkiy imslar kamayib, arab tilidan olingan antroponimlar ko‘paydi. Bu, o‘z navbatida, ismlarning nafaqat semantik va apelativ funksiyalarigagina emas, strukturasiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, bu davrdan boshlab o‘zbek ismlarida ham ikki komponent antroponomik sintaktik vositalar “abu, ibn, binni, abdu, Muhammad” kabi so‘zlar yordamida hosil qilinishi ustivor usulga aylandi. O‘z navbatida, semantik jabhada “islomiy ismlar” maqomini olgan, diniy shaxslar, e’tiqod va taqvo maqsadlaridagi ismlar ko‘paydi. Jumladan, *Abdunosir*, *Abu Tolib*, *Abu Rayxon Beruniy*, *Binni Muhammad Tofiq*, *Muhaddamrasul* kabi ismlar shular jumlasidandir. Bu ayrim hollarda qisman murakkabliklarga ham olib kelib, kishilarning kasbiy, shajaraviy, etnik mansubliklarining yo‘qolishi bilan birga shaxsiy ismlarini ham ikkinchi planga tushurib qo‘ydi. Masalan, o‘zbek xalqining atoqli mutafakkiri Abu Ali ibn Sinoning asli ismi (Husayn) qanday ekanligi faqatgina soha mutaxasislarigagina ma’lum tushunchaga aylandi. Ze’ro, uning ismidagi birliklar faqatgina “Alining otasi Sinoning o‘g‘li” ekanligi haqidagina axborot berib, shaxsiy ismini tushurib qoldiradilar. Qolaversa, bu davrdagi nomlarda arab tili xususiyatlari kuchli bo‘lib, ayrim hollarda ismlarning talaffuzi va orfografiyasida ma’lum qiyinchiliklarga sabab bo‘lgan. Bu, ayniqsa arab o‘zakli ismlarda aynan biri nom bo‘lishiga qaramay ularning yozilishida farqli jihatlar kuzatilgan. Masalan, “*Mansur ibn Somut*”ning “*Mansur-binni-Somut*” yoki “*Sulton Muhammad*” va “*Muhammad Sulton*”, “*Abu Javla Roziq*”ning “*Roziq-i-Abu Javla*” kabi shakli ham aynan bir nom ekanligiga qaramay, aksariyat hollarda, ayniqsa tarixiy yodgorliklarning tarjimalarida alohida ikki shaxs sifatida talqin

etilgan. Bu esa manbalardagi ma'lumotlarning ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda turli tushunmovchiliklarga sabab bo'lgan.

O'zbek antroponimikasida 16-17-asrlarda o'zgarishlar sodir bo'lib, bu davr turkiy sivilizatsiyada "Ikkinchi renesans" davri atamasi bilan mashhur bo'lgan Temuriylar davri bilan chambarchas bog'liqdir. Ze'ro, o'zbek antroponimikasida ustivor bo'lgan arabiy nominatsiya bu davrga kelib nisbatan susayib, ismlarda turkiylashish holatlari ko'proq sezila boshladi. Bu o'zgarishlar asosan ismlarda "laqablar yoki unvonlar" asosida nomlashda yaqqol sezildi. Biroq, aytish mumkinki kezi kelganda o'zbek antroponimikasida "laqab" atamasi salbiy ma'nodagi "biror xususiyatiga ko'ra kishiga hazil tariqasida masharalab beriladigan qo'shimcha nom, ma'lum ma'noda o'zgartirib olinadigan nom" [10] sifatida emas, balki "kishilarning ma'lum xususiyati, tashqi ko'rinishi, ijtimoiy mavqei, etnik xususiyati yoki unvoni asosida yaratilgan ikkinchi nom" sifatida anlashilishi lozim bo'ladi [10, 11]. Bunda bu "laqab" "sifatiy nom" xususiyatini namoyon qilgan holda o'ziga xos nominatsiyaga ega bo'lib, davriy, geografik yoki boshqa sotsial jihatlariga aloqador bo'lishi kuzatiladi. Temuriylar davrida arabcha nomlar o'rniga shu kabi "laqab"li antroponimlar qo'llanilishi kengaydi. Masalan, *Tug'luq Temurxon va Bahrom Chubin* ismlaridagi "tug'luq (bayroqdor)" va "chubin (nayza, kamon)" nomlari "sifatiy nom" sifatida nom egalarining "ma'lum bir ijtimoiy jamoadagi tutgan o'rni yoki vazifasi"ni ham aks ettira oladi. Ba'zi hollarda "sifatlovchi nom" shaxsning nasabiy mansubligi *Bayon O'g'lon* (Bayon Sulduzning o'g'li, oiladagi kichik farzand), *Yulduz binni Qorachor* (Qorachorlar avlodidan) yoki *Ulug' Tog' Temur* kabi geografik, *Amir Qorachor No'yon* va *Bayon Sulduz*dagi kabi mansab yoki *Siddiq Barlos*, *Qora Yusuf Turman*, *Malik Saljuqli*, *Boyazid Jaloyirlar*dagi etnik mansublik kabi semalarni aks ettira boshladi. Shu sababli bu davrdagi o'zbek antroponimlarini o'rganish juda murakkab bo'lib, tarixiy asarlar mazmunidagi tarixiy shaxslar nomi, ularning taqdirleri, jamiyat va tarixdagi o'rinlarini xolisona baholash uchun ular antroponimikasidagi yuqoridagi jihatlarni ilmiy tadqiq etilish zarurati ushbu tadqiqotimizning dolzarbligini belgilab beradi. Bu fikr tarixiy asarlardan keltirilgan ushbu parchada aniq seziladi:

“Hovlig‘a kirganlar to‘rt kishi edi: biri Sayid Qosim eshikoqo edi, yana biri Qanbar ali Qosimbek edi, yana biri Sherquli mo‘g‘ul edi, yana biri Sulton Ahmad mo‘g‘ul edi” (Bobirnoma, -261) *“Ahli majlis Muhib Ali Qo‘rchi, xoja Muhammadali kitovar, Shox Hasan, Shoh sulton Muhammad do‘ltoy, Darvesh Muhammad Sarbon edi”* (Gulbadanbegim. Humoyunnoma, -46)

Bundan tashqari bu davrdagi antroponimlardagi yana bir muammo ismlarning gender xususiyatlarini aniqlashtirish masalasi bo‘lib, ko‘p hollarda ismlardagi bu jihat mavhumlashgan bo‘ladi. Masalan, ismlarga qo‘shiladigan “og‘a” leksemasi ko‘p hollarda *O‘ljoy Turkon Og‘o, Qorachubin og‘o* shaklida ayollar nomiga nisbatan qo‘llanilgan. Bu kabi xususiyatlarni bilmaslik kontekstdagi ma‘lumotlarning mavhumlashuviga olib keladi.

Qolaversa, o‘zbek antroponimlaridagi “sifatlovchi nom”lar ko‘p hollarda bir paytning o‘zida turli tillarga oid “komponentlarga egaligi ham ularning mazmunini anglashilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa *Ziyouddin Qora Arslon, Faxriddin Arslon Tug‘mish* kabi nomlardagi turkiy va arabcha, ba’zan mo‘g‘il leksemalarini qo‘shib yaratilgan ismlarda yaqqol sezilib turadi [2, 1444].

XULOSA

O‘zbek antroponimikasining etimologik rivojlanishini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon uzoq tarixiy bosqichlarni o‘z ichiga olgan murakkab va ko‘p qatlamli tizimdir. Qadimgi turkiy davrda antroponimlar ko‘proq mifologik asoslarga ega bo‘lib, semantik va kulturologik belgilarga asoslangan ko‘p komponentli nomlardan iborat bo‘lgan bo‘lsa, islomlashuv davridan boshlab arabcha ismlar va ularning sintaktik modellari ustunlik qila boshlagan. Temuriylar davrida esa arabcha nomlash tizimi zaiflashib, turkiy madaniyat va an’anaviy laqabli nomlash tizimi qayta kuchaygan. Har bir davrda ismlarning strukturaviy va semantik xususiyatlari, shuningdek, ijtimoiy va madaniy kontekst bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, bu holat antroponimik birliklarning tarixiy, lingvistik va madaniy o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari o‘zbek antroponimlarini davrlashtirish, ularning nomlanish modellari, semantik turlari hamda til tizimiga ta’sir etgan tashqi va ichki omillarni ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi. Shu

bilan birga, qadimgi antroponimlardagi gender, etnik va ijtimoiy maqomni belgilovchi komponentlarning izchil o'rganilishi, ularning zamonaviy tilshunoslik, tarix va madaniyatshunoslik bilan bog'liqligini ochib beradi. O'zbek antroponimlaridagi "sifatlovchi nom"lar o'zbek tili tarkibida to 20-asrgacha saqlanib qolib, sobiq sovet tuzumidagi ruslashtirilgan familiyalar joriy qilinishi bilan tugallandi.

Ushbu xulosalar o'zbek antroponimikasini chuqurroq o'rganish, ularni tasniflash va madaniy identitetni aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бегматов Э. Антропономика узбекского языка: Автореф.дисс... канд. фил.наук. – Ташкент, 1965. – 26 с.
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.
3. Бобур З.М. Бобурнома Тошкент. Юлдузча, 1989. – Б. 368.
4. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. Тошкент. Ўзбекистон НМИУ. 2016. – Б. 60
5. Жапаров И. Киргизская антропономика: Автореф.дисс...д-ра фил.наук. Алма-Ата, 1989. – 53 с.
6. Йўлдошев Б. Ўзбек тили ономастикаси масалалари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. – 110 б.
7. Vositov V.A. Hozirgi ingliz tiliga turkiy tillardan o 'zlashgan fe'llarning grammatik xususiyatlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2024, 1(1), 53-55.
8. Саттаров Г.Ф. Антропономика Татарской АССР: Автореф.дисс...д-ра фил.наук. – Казань, 1975. - 52 с.
9. Сатторов Ғ.Ҳ. Ўзбек исмларниинг туркий қатлами: Филол.фан. ном.дисс...автореф. – Тошкент, 1990. - 19 б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-жилд. – Б. 492.

11. Xusanova Z.N. Laqablarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularning o'zbek tili antroponimik tizimidagi o'rni. filol. fan. bo'yicha falsafa doktori dis. avtoref. – Samarqand , 2023. – 51 b.

12. Ibragimova G.M., Vositov O.T. Toponyms as an object of linguoculturologic research. “Инновацион ғоялар, ишланмалар амалиётга: муаммолар, тадқиқотлар ва ечимлар” Халқаро онлайн илмий- амалий анжуман. 2021. Заҳириддин Муҳаммад Бобур номидаги Андижон давлат университети, 259.